

**CHINGIZXON VA AMIR TEMURNING QO‘SHINLAR JANGOVAR RUHINI  
KO‘TARISHDAGI CHORA-TADBIRLARI****ОПИСАНИЕ МЕР, ПРЕДПРИНЯТЫХ ЧИНГИСХАНОМ И АМИРОМ  
ТЕМУРОМ ДЛЯ ПОДНЯТИЯ БОЕВОГО ДУХА ВОЙСК****A DESCRIPTION OF THE MEASURES TAKEN BY CHINGIZKHAN AND  
AMIR TEMUR TO CHEER UP THE MORALE OF THE TROOPS****Qobulov S.M.**

O‘R OHABY boshlig‘ning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar  
bo‘yicha o‘rinbosari podpolkovnik

**Annotatsiya.** Biz ko‘rib o‘tmoqchi bo‘lganimiz ikki sarkarda Chingizzon va Amir Temur garchand bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki zamonda yashamagan bo‘lsada, ularning davlat barpo etishdagi sharoit o‘zgacha bo‘lgan.

Qo‘sishlarning ahloqiy-ruhiy holatini barqaror saqlab turishda, agar zarur bo‘lsa uni mustahkamlashda harbiy sarkardaning harbiy mahorati, shaxsiy namunasi, diniy motiv, musiqiy kuy-qo‘sishqlar, jangchilarni oldinga harakatlantiruvchi turli chaqiriqlar va hayratlanarli nutqiy birikmalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Chingizzon turli din, e’tiqodga sig‘inuvchi, turli til va lahjalarda so‘zlovchi bir-biri bilan kelishmay maydalashib ketgan urug‘, ulus va qabilalarni o‘zaro-nizolaridan ustamonlik bilan foydalanib, kichik bir hududda o‘z davlatini barpo qildi va o‘zi e’tiqodsiz bo‘lgani holda barcha dinlarga nisbatan baravar munosatda bo‘lib hokimiyatini tikladi hamda keyinchalik bu amaliyotni vorislariga ham nasihat qilib qoldirdi.

Amir Temur esa islom bayrog‘i keng yoyilgan, aholisining aksariyati musulmon bo‘lgan Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida yashovchi islomga e’tiqod qiluvchilar ishonchiga kirib, sayidlar va shayxlar rahnamoligida yagona islom g‘oyasi qo‘llab-quvvatlagan va mana shu asosda o‘z armiyasi ruhiy holatini, tartib-intizomini ushlab turgan.

**Kalit so‘z:** qo‘sishlar ruhiy barqarorligi, jangovar chaqiqir, diniy motiv, harbiy hiyla, rag‘batlantirish tizimi, jazolash tizimi, harbiy sarkardaning huquqlari, harbiy orkestr

**Аннотация.** Хотя эпохи, в которых жили оба рассматриваемых нами полководца, различались не сильно, условия для государственного строительства у Чингисхана и Амира Темура были разными.

В поддержании боевого духа войск, а при необходимости и в его укреплении, большое значение имеют воинское мастерство военачальника, личный пример, религиозные мотивы, музыка и песни, различные призывы к продвижению бойцов вперед и мотивационные речи.

Чингисхан основал свое государство на небольшой территории, мастерски используя различия между родами, народами и племенами, поклонявшимися разным богам, говорившим на разных языках и диалектах, и установил свою власть, одинаково относясь ко всем религиям, хотя сам был атеистом, позже он передал эту практику своим преемникам.

Амир Темур завоевал доверие исламских религиозных лидеров, проживающих в Мовераннахре и Хорасане, где большинство населения составляют мусульмане, и поддерживал в своей армии боевой дух и дисциплину, используя идеи ислама.

**Ключевые слова:** психическая устойчивость войск, призыв к бою, религиозные мотивы, военная тактика, система поощрений, система наказаний, права военачальника, военный оркестр.

**Abstract:** Although the two leaders did not live in two very different eras, Chingizkhan and Amir Temur, the conditions for their state-building were different.

In maintaining the morale of the troops, and if necessary, strengthening them, the military skills of the military commander, personal example, religious motives, musical songs, various calls to move the fighters forward and amazing speech combinations are important.

Chingizkhan established his state in a small area, masterfully exploiting the differences between clans, nations and tribes, who worshiped different religions, faiths, spoke different languages and dialects. He restored his power by treating all religions equally, even though he was an atheist, and later passed this practice on to his successors.

Amir Temur, on the other hand, gained the trust of Muslims in Movarounnahr and Khorasan, where the Islamic flag is widespread and the majority of the population is Muslim. He kept his army in good spirits and discipline.

**Keywords:** mental stability of troops, call to arms, religious motives, military tactics, incentive system, punishment system, rights of a military commander, military band.

**Kirish.** Markazlashgan davlatga asos solgan Chingizxon va Amir Temur davlat hududlarini kengaytirishda qo'shinlaridagi jangovor ruhning yuqoriligi g'alabaning tezkorligini ta'minlagan.

Janglarda hududlarning bosib olinishi erishilgan g'alabalarni qo'lga kiritishda ular qo'shinlarining boshqa davlatlar qo'shinlaridan qurol-yaroqlarning sifati, ularni mohirona ishlata olish, tartib-intizom va albatta, eng asosiysi qo'shining jangovalik sifatlariga asos bo'lgan hamda ruhiy barqarorlik ustunligi bilan lashkarboshilarning o'tkir fikrlay olishlari, ajoyib strategik va taktik qoidalardan foydalana olishlari bilan izohlashimiz mumkin.

Insoniyat tarixi urushlarga boy bo'lgan, urushlardan ko'zlangan asosiy maqsad hukmdorlarning davlat hududlarini kengaytirishi, mol-mulkka, martabaga va shuxratparastlikka intilishi bo'lgan. Urushda ma'lum bir maqsad qo'yiladi, jumladan istilochi tomon o'lja, boylik, hududlarni kengaytirish va boshqa shu kabi moddiyat uchun, himoyachi tomoni esa yurt mudofaasi, shaxsiy erkinligi va tinchligi uchun kurashadi. Harbiy sarkardaning vazifasi qo'shnarda jangovor rujni oshirish, ongi va xis-tuyg'usiga ta'sir etish, mahoratidan hamda ularni

rag‘batlantirish, agar kerak bo‘lsa hiylalar ishlatib jangda g‘alaba qozonish boshqarishdan iborat bo‘lgan. Qo‘sishinlar jangovor ruhini oshirishda jangchilar ahloqiy-ruhiy holatini ushlab turish va mustahkamlashda diniy omilning o‘rni beqiyos bo‘lgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Biz ko‘rib o‘tmoqchi bo‘lganimiz ikki sarkarda Chingizzon va Amir Temur garchand bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki zamonda yashamagan bo‘lsada, ularning davlat barpo etishdagi sharoit o‘zgacha bo‘lgan.

Mo‘g‘ullar davlatini tashkil toptirishda Chingizzon turli din, e’tiqodga sig‘inuvchi, turli til va lahjalarda so‘zlovchi bir-biri bilan kelishmay maydalashib ketgan urug‘, ulus va qabilalarni o‘zaro-nizolaridan ustamonlik bilan foydalaniб, kichik bir hududda o‘z davlatini barpo qildi va o‘zi e’tiqodsiz bo‘lgani holda barcha dinlarga nisbatan baravar munosatda bo‘lib hokimiyatini tikladi hamda keyinchalik bu amaliyotni vorislariga ham meros qilib qoldirdi.

Markazlashgan davlat tashkil topishda Amir Temur islom dinidan foydalangan. Islom bayrog‘i keng yoyilgan, aholisining aksariyati musulmon bo‘lgan Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida yashovchi islomga e’tiqod qiluvchilar ishonchiga kirib, sayidlar va shayxlar rahnamoligida yagona islom g‘oyasi ostida g‘ayridinlardan mamlakatni tozalash shiori bilan Tug‘luq Temur va uning o‘g‘li Ilyosxo‘ja boshliq mo‘g‘ullarni mamlakatdan quvib chiqarishga erishdi va aynan mana shu tamoyil asosida keyinchalik Oltin O‘rda hududlari, Rus knyazliklar, Hindiston va Xitoy (garchi o‘limi sabab yakunlanmay qolgan bo‘lsada) ga yurishlarni amalgalashgan.

Sayyidlar va eshonlar Amir Temurni asr qahramoni, e’tiqod tayanchi va suyanchi, payg‘ambar xush ko‘gan odam deb e’lon qildilar. “Eng taqvodor kishilar kamalak yanglig‘ ilohiy nuring Muhammad payg‘ambarning qabridan chiqib, Ollohnning aziz bandasi Amir Temurning yelkasiga tutashganini va uning bu ilohiy nurga chulg‘anganini ko‘rganlari haqidagi mish-mishni tarqatdilar va qo‘llab-quvvatladilar. Shuning uchun uning barcha tadbirlari qo‘sishinlari uchun falakning azm-u qarori, uning o‘zga xalqlar tomon yurishlari ham azalning irodasi, Ollohnning g‘azabiga uchraganlar uchun buyurilgan jazo hisoblangan”<sup>1</sup> deyilgan g‘oya ham Amir Temur qo‘sishinlari jangovorlik ruhini bergen.

Islom dini marosimlariga doimo rioya qilish, ya’ni jamoat bilan jang oldidan namoz o‘qish, kechasi esa Amir Temurning yakka o‘zi chodirida namoz o‘qib, mulohaza yuritishi janchilarga mardlik va jangning muvaffaqiyatli tugashiga ishonch bag‘ishlagan.

Qo‘sishinlarning ruhiyatiga ta’sir qiluvchi bunday chora-tadbirlarni qo‘llashdan tashqari Amir Temur bo‘ysindirilgan mamlakatlarini muvaffaqiyatli boshqarish lozimligini yaxshi tushunar va boshqarishga loyiq kishilarni mahorat bilan tanlashni buning birinchi sharti deb hisoblardi<sup>2</sup>.

Amir Temurning dinga e’tiqodi mohir qo‘llarida u yuksak san’at bilan harakatlantira oladigan harbiy-siyosiy mashinaning asosiy dastagi bo‘lib xizmat qila boshladi. Amir Temurning boshqaruв tartiboti shu jihatи bilan hech qanday diniy e’tiqodga bo‘ysinmagan o‘z lashkarlarida

<sup>1</sup> М.Иванин “Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур”. Тошкент-“Фан” нашриёти. 160-6.

<sup>2</sup> A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Qomuslar bosh tahririyyati. Toshkent 1994. 41-b.

bosqinchilikka rag‘batni boshqa mutaassiblik usullari bilan qo‘zg‘ata olgan Chingizxonning boshqaruvidan farq qilgan.

Rus imperiyasi tarixchisi Mixail Ivaninning xitoy qo‘lyozmalarini o‘rganish asnosida bergen ma‘lumotlariga ko‘ra Chingizxon tartib bergen mo‘g‘ul-tatar qo‘sishinlarining barcha axloqiy-ruhiy sifatlari, jangovar harbiy san’ati ma’lum ma’noda xitoyliklardan olgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas<sup>3</sup>.

**Matetiallar va metodlar.** Chingizxonning jangda og‘ir qo‘sishinlari, ya’ni sovut kiygan jangchilar o‘rtada, yengil qo‘sishinlar esa otliqlar panohida-chechkada joylashgan. Jang oldidan sarkardalar qo‘sishinlar jangovor ruhini ko‘tarish uchun qisqagina nutq so‘zlab, jangda agarda muvaffaqiyatga erishilsa, turli o‘ljalar, suruvlar podasini o‘tlatish uchun bepoyon yaylovlarga egalik qilish istagi bilan ularni ruhlantirgan va buyruqlar bergan. Lashkarlar bir maromda qadam tashlab, otliqlar esa musiqa sadosi ostida hayqiriqlar bilan otlarni kishnatib yurishni boshlashgan.

Chingizxon ovni urush maktabi deb atagan va tinchlik davrida hayvonlar bilan urush olib borish, hayvonlar uyasini topib, tayinlangan joyga quvlab borgan, ularning yo‘llarini kesib, o‘z qo‘sishinlarida joy xususiyatlaridan foydalanishni, tartib bilan harakat qilishni, menganlik va harbiy saboqni takomil ettirgan (hozirgi kunda tinchlik davrida qo‘sishinlarni jangovar sharoitga yaqinlashtirilgan harbiy dala o‘quv maydonlari, psixologik to‘silalar yo‘lagi va hokazo shu kabi jang manzarasini aks ettiruvchi vositalar qadimda aynan shunday ko‘rinishda bo‘lgan. *Muallif*).

Chingizxon o‘z qo‘sishida shunaqangi tartib-intizom o‘rnata olganki, uning Yaso qonunlari asosida jangchilar oddiygina bir ijtimoiy qilmish uchun qattiq jazo muqarrarligini qo‘zi bilan ko‘rib, qalbi bilan his qilishgan. Chingizxon katta qo‘sinni boshqarish uchun albatta, tizimlashtirilgan boshqaruv va tartibga solingen tutum zarurligini inobatga olgan holda yarim yovvoyi ko‘chmanchi qabilalar orasida yagona bo‘lgan nizom talablari, ya’ni Yaso qoidalarini taomilga kiritdi. Aynan mana shu ustunlik, shu bilan birga ko‘chmanchi qabilalarning yoshligidan qon-qoniga singigan jangovor ruhiy sifatlar sabab Chingizxon boshliq mo‘g‘ullar dushmanlaridan g‘alaba bayrog‘ini tortib olishga yetarli bo‘lgan. Masalan, Xorazmshoh Muhammadning lashkari 400 ming bo‘lishiga qaramay, Chingizxon qo‘sining yaqinlashib kelayotgani uni kuchli sarosimga soldi. Chunki uning qo‘sishida tartib intizom, hukmdorga so‘zsiz bo‘ysinish, qiyinchiliklarga, yo‘qchiliklarga chidam layoqati kabi xususiyatlar yo‘q edi<sup>4</sup>.

Etimol Muhammad o‘z qo‘sishinlarining jasurligi va sodiqligiga ko‘p ishonmaganligi uchun ham qo‘sish orasida ruhiy tushkunlik paydo bo‘lgan bo‘lsa kerak<sup>5</sup>.

Chingizxonning jangovor ruhni kutarishga kiritgan tartib, ya’ni yurish boshlashdan avval yoki jang oldidan qo‘sinning ahvolini, qanday qurollanganligini, jihozlanganini, umuman uning holatini ko‘rikdan o‘tkazish qonuniga Amir Temur niroyatda jiddiy ravishda amal qildi.

Jangovor ruhni oshirishda jang oldidan amir qo‘sishinlari tekis harakat bilan yurishlari uchun har bir safning joyini tayin qilar edi. Ular u joyga o‘zlarini otlarini o‘ngga ham so‘lga ham

<sup>3</sup> M.Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur”. Toshkent-“Fan” nashriyoti. 13-b.

<sup>4</sup> Bunyodov Z. Anushtagin- Xorazmshohlar davlati (1097-1231). A. Ahmad va M. Mahmud tarjimasi. Toshkent. 1998-y. 78-b.

<sup>5</sup> M.Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur”. Toshkent-“Fan” nashriyoti. 51-b.

burmasdan borishlari, dushman bilan to‘qnashganda “Alloh-u akbar!” deb hayqirib, shiddat bilan unga tashlanishlari kerak edi. Bu tadbir safda turgan qo‘shinlarning haya jondan behuda otish bilan shug‘illanmasdan, diqqatni bir joyga jamlab shiddatli hujum qilishlariga qaratilgan edi.

Amir Temur so‘zlariga ko‘ra siyosat va tadbir bilan maqsadga erishish mumkin bo‘lgan yerda quroq bilan harakat qilish noto‘g‘ridir. Jang oldidan mohir diplomatik qobiliyatga ega, notiqlik sifatlari sohibi bo‘lgan vakillar dushman qarorgohiga yuborilgan. Ular bisotidagi barcha so‘z mulkidan foydalanib, qarshi tomon hukmdoriga psixologik ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan tinch yo‘l bilan taslim bo‘lishga ko‘ndirgan. Ko‘nmagan yurt-qabilalar esa quroq kuchi bilan taslim etilgan<sup>6</sup>.

Qo‘shining avangard qismlari boshlab bergan jangni o‘ng va chap qanot qo‘shinlari davom ettirishgan. Kerakli paytda Amir Temur boshchiligidagi markaziy qismlar ham jangga tashlangan. Jang paytida bevosita dushman qo‘shinlari qo‘mondoni qarorgohiga hujum qilib, uni asir olish, dushman tug‘larini yig‘ishtirish vazifalari yuklatilgan qismlar ham bo‘lganligini alohida ayтиб o‘tish lozim. Bu dushman qo‘shinini sarosimaga solish, markaziy boshqaruв (shtab) faoliyatini izdan chiqarishga va Amir Temur qo‘shinlarining g‘alabasiga olib kelardi. Dushman tug‘ini yiqitgan va qo‘lga olgan bahodirlar esa munosib taqdirlangan.

Temur tuzuklaridagi ma’lumotlarga qaraganda, biror g‘anim armiyasini mag‘lubiyatga uchratgan sarkarda uchun maxsus mukofot ta’sis etilgan, ya’ni sharafli "bahodir"lik unvoni hamda tug‘ va nog‘ora berilgan.

Sohibqiron qo‘shinni o‘nlik, yuzlik, minglik, va o‘n minglik qismlarga ajratib boshqargan. Shuningdek, qo‘shin soniga qarab jang qilish usullari, lashkarni rag‘batlantirish, maosh tayinlash kabi barcha sohalariga e’tibor qaratilgan. Amir Temur o‘z xizmatidagilarni rag‘batlantirishda boyliklarni ayamas, ularni o‘zi bilan ovqatlanishga taklif qilar, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilar, adolatli va beg‘araz bo‘lib, o‘z fuqarolarini va qo‘shinlarini o‘zining ta‘biri bilan aytganda qo‘rquv va umid orasida ushlab turar edi. U harbiy sohani yangicha asosda boyitgan.

Jangu jadal chog‘ida shijoat ko‘rsatib, dushman guruuhini qochirishga tuyassar bo‘lgan o‘nboshi shahar dorug‘asi, yuzboshi esa viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan.

Biror lashkarboshining hayoti xavf ostida qolgan vaziyatda uni g‘anim o‘qidan asrab, o‘z ko‘ksini qalqon qilgan jangchilar Sohibqironning hurmat-e’tiboriga va olqishiga sazovor bo‘lgan hamda maxsus inoyatlar bilan taqdirlangan.

**Tadqiqot natijalari.** Shuni ta‘kidlash lozimki, Amir Temur o‘z qo‘shini jangovar ruhiyatini ko‘tarish uchun nimaiki kerak bo‘lsa, barchasidan unumli foydalana olgan. Rag‘batga munosib jangchilarni ortig‘i bilan rag‘batlantirgan.

Amir Temur qo‘shinni pahlavon yigit tanasiga, lashkar qismlarini uning a’zolariga qiyoslagan va janglarda qaysi a’zolarni vaqtida ishlatalishni yaxshi bilgan. Qo‘shinda har bir

<sup>6</sup> X.Дадабоев. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Тошкент-1996. “Ёзувчи нашриёти”. 58-б.

bo‘linmaning maxsus kiyimi, rangi, quroli mavjud bo‘lib, bu usullar uning qismlarni jangga yo‘naltirishda maxsus belgi bo‘lib xizmat qilgan<sup>7</sup>.

Amir Temur qo‘sishin tizimidagi ixchamlik, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqiligi, bir-biriga bo‘ysunishi, pog‘onalar tizimi mukammal ishlab chiqilgan.

Jan-Pol Ru Amir Temur va Boyazid Yeldirim munosabatlari va ular o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Anqara jangini tahlil qilib o‘tgan. U *usmonlilar* armiyasining o‘z harbiy boshliqlariga Amir Temur qo‘smini kabi mustahkam bog‘lanmagani, Boyazid Ovrupaga yurish qilgani bilan jang harbiy harakatlar mazmunini Amir Temur Rados ritsarlariiga tegishli salbchi g‘ayridinlar maskani Smirmani ikki hafta mobaynida qo‘lga kiritgani, Boyazid Yeldirim esa o‘n ikki yil ovora bo‘lib bu yerni zabit eta olmaganligi, Sohibqironning harbiy layoqati Boyazidnikidan bir necha barobar ustun bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tgan<sup>8</sup>.

Temur ichki va tashqi siyosatda asosan qo‘sning suyanardi, shuning uchun ham u harbiy islohg‘a, ayniqsa qo‘sishin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, lashkariy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Qo‘snilarning jangovor ruhni ko‘tarishda uning “harbiy iste’dodi, sarkardalik mahorati qo‘snilarning tuzilishida hamda Oltin O‘rda xoni To‘xtamish, Dehli sultoni Mahmud va Turkiya sultoni Boyazidlar bilan olib borgan mahorabalarida va jang-u jadallarida qo‘llagan savtuljaysh (strategiya) va jang qilish uslublari tabiat-ul jaysh (taktika) da”<sup>10</sup> namoyon bo‘lgan.

Qo‘snilarning jangovor ruhini kutarishda jangovor taktikalar ham muhim o‘rin tutadi. Temur 10 minglik navkarni boshqarish uchun “tuman og‘asi”, minglik bo‘linmalar uchun “mirihazora”, yuzliklar uchun “qo‘sinhoshi” va o‘nliklar uchun esa “aylboshi” kabi harbiy mansablarni joriy etadi. Ularning haq-huquqlari, oylik maoshi belgilab beriladi. Masalan, oddiy sipohiy maoshi mingan otining bahosi barobarida, bahodirlar 2-4 ot bahosida, aylboshi qaramog‘idagi navkarga nisbatan ikki barobar ko‘p, yuzboshi o‘nboshidan ikki barobar ko‘p maosh belgilangan. Mingboshilarning maoshi qo‘sunboshi-nikidan uch barobar ortiq bo‘lgan<sup>11</sup>. Jinoyat qilgan har bir jangchi o‘z maoshining o‘ndan bir qismidan mahrum etilgan (“Temur tuzuklarida” “Urush paytida xatolikka yo‘l qo‘ygan har bir jangchi”, deyilgan). Janglarda bahodirlik ko‘rsatib g‘alaba qozongan amir uchun in’omlar ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, qaysi bir amir mamlakat yoki viloyatni zabit etsa, u tug‘, nohora, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi hamda biror viloyatning noibligi bilan siylangan<sup>12</sup>.

Qo‘snilarning jangovor ruhini oshirishda ma’naviy va moddiy rag‘batlantirishlarni yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, jangda o‘zini har tomonlama o‘rnak

<sup>7</sup> D.Ziyaeva. O‘zbekiston dahrbiy ish tarixi. Toshkent-2012. 85-b.

<sup>8</sup> Жан-Поль Ру. Тамерлан ... – С. 114.

<sup>9</sup> О‘scha muallif. – S. 118.

<sup>10</sup> Граков Б.Д., Якубовский А.Ю. Олтин Ўрда ва унинг кулаши. Тошкент. 1958-й. 288-89-б.

<sup>11</sup> D.Ziyaeva. O‘zbekiston dahrbiy ish tarixi. Toshkent-2012. 90-b.

<sup>12</sup> A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent 1994. 37-b.

sifatida ko‘rsatgan jangchilarga mukofotlar bilan sharaflash, maoshini oshirish, o‘lja bo‘lish vaqtida ulushini oshirish, yuqori mansabga ko‘tarish, faxriy unvon berish, “bahodir”, “botir” kabi nomlar bilan atash sifati berilsa, qo‘shin bo‘linmalariga nog‘ora, bayroq bilan taqdirlash an’anasi bo‘lgan.

Oqliq qismlarni boshqarishda jangoov ruhni ko‘tarishda suvoriy dovulchilar ikki tomoniga ikki nog‘oradovul osilib, jang paytlarida suvoriylarni mahorabaga chaqirish, ularning botiniy tuyg‘ularini kuchaytirish, xarakterini sobit qilish maqsadida ular bong urib qoqilgan.

**Xulosa.** Qo‘shinlarning jangovor ruhini ko‘tarishda “buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi sifatida Temurbek o‘ta intizomli armiya tuzishga, mahoraba chog‘ida qo‘shin qismlarini san’atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo‘ladigan joylarga harbiy kuchlarni o‘z vaqtida ustalik bilan yo‘llashga, har qanday to‘sinq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o‘tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga tuyassar bo‘ldi<sup>13</sup>.

Qo‘shinlarning jangovor ruhini ko‘tarishda Amir Temur qo‘shinida boshliqlarning huquqlarini ham belgilab qo‘yan.

1. O‘nboshilar qochib ketgan yoki o‘lgan jangchilar o‘rniga boshqa jangchilarni qabul qilish huquqiga ega edilar;

2. yuzboshilar o‘z birodarlari tanlab olgan jangchilarni o‘nboshilik vazifasiga, mingboshilar esa shu tarzda o‘nboshilar ichidan saralab olinganlarni yuzboshilik vaziqasiga tasdiqlar edilar.

3. Harbiylar orasida ham raiyat orasida ham boshliqlarning vazifalari itoatsizlarni jazolash, o‘z burchlarini bajara olmaganlarni haydash va ularning o‘rniga boshqa kishilarni tayinlashdan iborat edi.

4. Amir Temur jismoniy jazo berishni yoqtirmagani uchun uni ta’qiqilab qo‘yan, hokimiyati qamchi va tayoqdan kuchsiz bo‘lgan boshliq o‘zi egallab turgan lavozimga loyiq emas, der edi<sup>14</sup>.

Tarixda o‘z nomini muhrlagan ikki sarkarda ham qo‘shinlar boshqaruvi, qo‘shinlarda o‘rnatilgan tartib, jangchilarda hujumkorlik sifatlarini, qiyinchiliklarga bardoshlilik fazilatlarini shakllantirishdagi tajribalarini bugungi kunda o‘rnak tarzida qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lashkarning ahloqiy-ruhiy sifatlarini diniy omillarni inobatga olgan holda, moddiy rag‘batlantirish, turli hayqiriqlar hamda ularni olg‘a intilishga chorlovchi nutqlar bilan o‘z armiyasini ruhini ko‘targanligini maqolamiz davomida guvohi bo‘ldik.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. M.Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur”. Toshkent-“Fan” nashriyoti. 160-b.
2. A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar sultanati. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent 1994. 41-b.
3. D.Ziyaeva. O‘zbekistondaharbiy ish tarixi. Toshkent-2012. 90-b.

<sup>13</sup> X.Dadaboev. Amir Temuring harbiy mahorati. Toshkent-1996. “Yozuvchi nashriyoti”. 8-b.

<sup>14</sup> M.Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur”. Toshkent-“Fan” nashriyoti. 55

4. A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar sultanati. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent 1994. 37-b.
5. X.Dadaboev. Amir Temurning harbiy mahorati. Toshkent-1996. “Yozuvchi nashriyoti”. 8-b.
6. D.Ziyaeva. O‘zbekistondaharbiy ish tarixi. Toshkent-2012. 85-b.
7. Жан–Поль Ру. Тамерлан ... – С. 114.
8. Grakov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Oltin O‘rda va uning qulashi. Toshkent. 1958-y. 288-89-b.
9. Bunyodov Z. Anushtagin- Xorazmshohlar davlati (1097-1231). A. Ahmad va M. Mahmud tarjimasi. Toshkent. 1998-y. 78-b.
10. M.Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur”. Toshkent-“Fan” nashriyoti. 51-b.
11. Xomidov, A. A. (2021). XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI TURLARI. *Интернаука*, (22-5), 9-11.
12. Xomidov, A. A., & Abdurasulov, M. (2021). YO’LOVCHI VA YUK TASHISH SHARTNOMASI VA UNING MAZMUNI, MOHIYATI. *Internauka*, (45-3), 98-99.
13. Xomidov, A. A., & Abdirahimov, A. A. (2021). TRANSPORT LOGISTIKASIDA ZAHIRALAR VA OMBORLASHTIRISH. *Internauka*, (45-3), 100-103.
14. Хомидов, А. А. СотиболдийевНМ (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ. *Internauka*, (224\_2), 74-76.
15. Хомидов, А. А., & Сотиболдийев, Н. М. (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ. ИНТЕРНАУКА” *Научный журнал*, (1), 224.
16. Xomidov, A. A., & Tursunaliyev, M. M. (2022). ISHLAB CHIQARISH LOGISTIKASI. *Барқарорлик ва Етакчи Тақиқотлар онлайн илмий журнали*, (2), 1.
17. Ahmadjon o’g’li, X. A., & Muhammadali o’g’li, T. M. (2022). ISHLAB CHIQARISH LOGISTIKASI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 401-404.
18. Anvarbek, X., & Murodjon, T. (2022). ELIMINATING CONGESTION ON INTERNAL ROADS. *Universum: технические науки*, (2-7 (95)), 29-31.
19. Xomidov Anvarbek, & Tursunboyev Murodjon (2022). ELIMINATING CONGESTION ON INTERNAL ROADS. *Universum: технические науки*, (2-7 (95)), 29-31. [https://7universum.com/pdf/tech/2\(95\)%20\[15.02.2022\]/Xomidov.pdf](https://7universum.com/pdf/tech/2(95)%20[15.02.2022]/Xomidov.pdf)
20. Шодмонов, С. А. (2022). ДАТЧИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 4, 62-66.
21. Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Шодмонов Сайдбек Абдувайитович. (2022). ДАТЧИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 4, 62–66. <http://www.ejjrd.journalspark.org/index.php/ejjrd/article/view/65>
22. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o’g’li, Qurbonov Islombek Ibrohimjon o’g’li, Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Курбонов Исломбек Иброҳимжон ўғли. (2022).

AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 5(5), 13. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/932>

23. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Ibrohimjon o'g'li, Q. I. Xomidov Anvarbek Ahamdjon ўғли, & Kurbonov Islombek Ibrohimjon ўғли.(2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 5(5), 13.
  - a. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/933>
24. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Abduvayitovich, S. S. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 64-71.
25. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 64-71. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1703>
26. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Baxodir o'g'li, N. B. (2022). Manufacturing Logistics. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 60-63.
27. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Negmatov Bekzodbek Baxodir o'g'li. (2022). Manufacturing Logistics. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 60-63. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1702>
28. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). DEVICE FOR MANUAL CONTROL OF VEHICLE BRAKE AND ACCELERATOR PEDAL . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(2), 77-83. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2006>
29. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРООБОРУДОВАНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ НА БАЗЕ АДАПТИВНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ЭНЕРГИИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(2), 84-92. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2007>
30. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). ИССЛЕДОВАНИЯ ОСНОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ОСТАНОВОЧНЫХ ПУНКТОВ МАРШРУТНОГО ПАССАЖИРСКОГО ТРАНСПОРТА . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(2), 93-99. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2008>
31. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, Saidolimxon Jaloliddin o'g'li Abbasov, & Sayidbek Abduvayitovich Shodmonov. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(1), 76-82. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1969>
32. Shodmonov, S. A. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI.

33. Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich, Abbasov Saidolimxon Jaloliddin o'g'li, & Xomidov Anvarbek Axmadjon o'g'li. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIB CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(1), 83–90. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1970>
34. Аббасов Сайдолимхон Жалолиддин угли, Шодмонов Сайдбек Абдувайитович, & Хомидов Анварбек Ахмаджон угли. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(1), 101–108. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1972>
35. Шодмонов, С. А. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1972>
36. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, Sayidbek Abduvayidovich Shodmonov, & Guldona Akbarjon qizi Turg'unova. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 61–66. Retrieved from <https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/266>
37. Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 61-66.
38. Анварбек Ахмаджон ўғли Хомидов, Сайдбек Абдувайидович Шодмонов, & Гулдана Акбаржон қизи Тургунова. (2022). Результаты Лабораторных Исследований, Проведенных Для Разработки Технологии Регенерации Валов. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 67–72. Retrieved from <https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/267>
39. ўғли Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Тургунова, Г. А. (2022). Результаты Лабораторных Исследований, Проведенных Для Разработки Технологии Регенерации Валов. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 67-72. <https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/267>
40. qizi Turg'unova, G. A., Ahmadjon o'g'li, X. A., & Shodmonov, S. A. (2022, December). SUYUQ VA GAZ HOLATIDAGI HAMDA CHANG KO'RINISHIDAGI YUKLARNI TASHUVCHI MAXSUS VA GIBRID AVTOMOBILLAR. In *Conference Zone* (pp. 287-295).
41. Ahmadjon o'g'li, X. A., Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022, December). YO 'LOVCHI AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI. In *Conference Zone* (pp. 207-214).

42. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Nabijon o'g, A. O. T. (2022). TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKATINING TAVSIFLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH.
43. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Ibrohimjon o'g'li, Q. I. (2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.
44. Махамматзокир Тоштемирович Гаффаров, & Анварбек Ахмаджон ўғли Хомидов. (2022). Регулирование Транспортных Потоков В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 73–78. Retrieved from <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/268>
45. Гаффаров, М. Т., & ўғли Хомидов, А. А. (2022). Регулирование Транспортных Потоков В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 73-78. <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/268>
46. Анварбек Ахмаджон ўғли Хомидов, Сайдбек Абдувайидович Шодмонов, & Гулдана Акбаржон қизи Турғунова. (2022). Определить Поток Пассажиров В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 79–87.
47. ўғли Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Определить Поток Пассажиров В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 79-87.
48. Rahmatullo Rafuqjon o'g'li Rahimov (2022). Avtomobil transportida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat xavfsizligini ta'minlash uslublarini takomillashtirish yo'llari. **ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ**, 750-754.
49. угли Рахимов, Р. Р. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА ПОДВИЖНОГО СОСТАВА ДЛЯ ПЕРЕВОЗКИ МЕДИКАМЕНТОВ ПОТРЕБИТЕЛЮ. *Journal of new century innovations*, 18(5), 109-120.
50. Rafuqjon o'g'li, R. R. (2022, December). TIRSAKLI VALLARNI TAMIRLASH ISTIQBOLLARI. In *Conference Zone* (pp. 333-342).